ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(4)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 348 sahifa,
20-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

MUNDARIJA

Pedagogical Model for Developing Students' Communicative Competence: Organisation of Experimental Work and Evaluation of its Effectiveness 10
Mukhamedova Matlyuba Satvaldiyevna, Xudoyberdiyev Olloqul Isaqovich

Bakalavriat darajasida bo'lajak matematiklarning kasbiy hamda amaliy malakalarini rivojlantirish usullari ... 17
Abduraxmonov Abdumo'min, Sheraliyev Aliboy Tulboyevich

Sport mashg'ulotlarini real vaqt rejimida boshqarishda ter biomarkerlarini o'lchovchi taqiladigan biosensorlar 20
Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li

Ekstremal issiqlik sharoitida sportchilarning ish qobiliyatini oshirish shakllari: akklimatsiya, sovitish va individual gidratatsiya dalillari 26
Qodirova Shahlo Shavkatjon qizi

Mikroorganizmlarda fermentatsiya orqali energiya hosil bo'lishi va uning biotexnologik ahamiyati 31
Raxmatullaeva Maxfuza Igamberdiyevna

Bo'lajak pedagoglar tayyorgarligida learning analytics asosidagi metodik ta'minotning mazmuni va tuzilishi 37
Akbarova Sevaraxon Xusanboy qizi

Sovet davridan mustaqillik davrigacha O'zbekistonda suv siyosatining tarixiy transformatsiyasi: Orolbo'yi inqirozi misolida 45
Dadaboyev Nodirbek Ergashali o'g'li

Digital SAT matematika bo'limida maxsimal (800 ball) natijaga erishish strategiyalari va desmos interfaol imkoniyatlaridan foydalanish 51
Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich

Ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning, kreativ yondashuv asosida talabalarning nutq va tafakkurini rivojlantirishga oid nazariy bilim hamda amaliy malakalarga egaligi 55
Abdullayeva Mavluda Aribovna

Bo'lajak pedagoglarda pedagogik improvizatsion ko'nikma va malakalar 62
Ablokulov Sherali Davronovich

Interaktiv platformalar vositasida bo'lajak pedagoglarning texnologik-amaliy kompetensiyasini rivojlantirish: elektron ta'lim resurslarini yaratish tajribasi 66
Maxmudov Abduxalim Xamidovich, Yo'ldashev Axrorjon Egamnazar o'g'li

Elektr yoritish fanini o'qitishda yangi interfaol metodlarning ahamiyati 71
Nasretdinova Feruza Nabiyevna

Developing Methodological Decision-Making Skills in Pre-Service English Language Teachers Through Clil-Based Tasks 75
Nilufar Achilovna Tuxtayeva

Developing Linguocultural Competence Through Digital Storytelling in English Language Teaching: an Integrated Approach 79
Rakhimov Mansur

Nature of Speaking in EFL Contexts: Fluency, Accuracy, and International Competence 83
Rashidova Nodira Khabibullayevna, Egamberdiyeva Marjona Abdurasul kizi

Autizmli bolalarning sensor rivojlanishida ta'lim muhitining o'rni 89
Sh. A. Nurmatova

Ta'limda inson va sun'iy intellekt hamkorligining metodologik transformatsiyasi: inson markazli pedagogik paradigma 94
Tadjimatova Xosiyatxon Botirjon qizi

Ingliz tilini o'qitishda aralash metodlarni qo'llashning didaktik asoslari va darsni loyihalash modeli 102
Usmonova Dilnoza Muratovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Онлайн-проекты как механизм формирования профессиональных навыков у будущих учителей русского языка 106
Матниязова Азиза Бахтияровна

Malakali dzyudochilarni tayyorlashda texnik-taktik mahoratni takomillashtirish mexanizmlariga innovatsion yondashuv 110
Tangriyev Abdullo Tovashevich

Malakali dzyudochilarni xalqaro musobaqalarga tayyorlash tizimini takomillashtirish: Olimpiya saralash davrida rejalashtirish va cho'qqi shaklga chiqarish 116
Tangriyev Abdukarim Tovashevich

Sinfdan tashqari faoliyatlar jarayonida hadislarga asoslangan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning pedagogik salohiyati va amaliy asoslarini takomillashtirish 122
Fayzullayeva Gulnoza Kamolovna

Ta'lim loyihalarining iqtisodiy-pedagogik samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari 129
Saitxonov Bobomurod Po'latovich

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan logopedik mashg'ulotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi 133
Tojiboyeva Osiyoxon Alisher qizi

Aksiologik yondashuvning pedagogik va psixologik mohiyati 138
Hafizov Shahriyor Shavkatovich

Emotsional intellektni rivojlantirishda kognitiv yondashuvning nazariy-metodologik asoslari 142
Nishonova Lobar Mirzakulovna

Boshlang'ich sinflarda ongli o'qishni leksik-kognitiv yondashuv asosida rivojlantirish 146
Ne'matova Diyora Baxodir qizi, Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna

O'qituvchilarda kasbiy stressning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar 153
Konratbayeva Ayjamal Bazarbayevna

Xorijiy tajribada neyropedagogik yondashuvlar va kognitiv boshqaruv modellari: kengaytirilgan tanqidiy komparativ tahlil 158
Izzatullayeva Zohidaxon Sunatdullayevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirish muammosi: pedagogik tahlil 164
Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Israilova Oydin Uchkun qizi

O'zbek musiqiy merosi va uni talabalarda qadriyatli munosabat sifatida shakllantirish 169
Mannapov Sultonali, Mansurova Nigoraxon Rustamjonovna

Integrativ ta'lim texnologiyalari va raqamli vositalar asosida bilish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi 173
Quvvatova Mohira Hikmatillayevna

Maktabgacha ta'limda 6–7 yoshli bolalarning metakognitiv kompetensiyalarini o'yin faoliyati orqali rivojlantirishning texnologik dasturi va uni amaliyotga tatbiq etish tizimi 177
Nuritdinova Xurshida Narpulatovna

Futbol texnikasining asosiy elementlari va texnik harakatlarni bajarish usullarini o'rgatish 182
Sadriddin Tulepov

Innovatsion ta'lim muhiti asosida pedagogika fanini o'qitish modelining samaradorligini tajriba-sinov asosida baholash 187
Abdusattorova Sarvinoz Norqo'zi qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy idrok va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning sinergetik-integrativ asoslari 192
Abdullayeva Feruza Nurillayevna

Rus tilini o'qitish jarayonida talabalarning o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi 197
Allayarova Dilfuza Klichevna

Practical Methodological Approaches to Developing Management Skills of Deputy Directors in Preschool Educational Organizations Principles of Connecting Theoretical Knowledge With Practical Activity 201
Makhamadalieva E'zoza Rustamkhuja

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kimyo muhandisligi terminologiyasida polisemiya hodisasi 205
Shomurodova Zebiniso Rajabovna

Talabalar o'quv muvaffaqiyatini rivojlantirishning pedagogik, psixologik va texnologik determinantlari 209
Turaboyeva Madinaxon Raxmonjon qizi

O'quvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasini mediamatnlar vositasida rivojlantirishga oid xorijiy tajriba tahlili 219
Turdimuratova Aysanem

Искусственный интеллект в преподавании русского языка в узбекоязычной аудитории: возможности, риски и методические решения 224
Мустанов Убайдулла Зулпанович

Shaxs texnologik tafakkuri fenomenining falsafiy-antropologik va gnoseologik talqini 229
Toshpulatova Farida Radjabovna

Lotin tilining zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni 234
Shirinkulova Shafoat Malikovna, Rajabova Charos Shavkat qizi

Bo'lajak o'qituvchilar raqamli mediamadaniyatini kasbiy-pedagogik sifat sifatida rivojlantirishning konseptual asoslari 240
Narmanov Alisher Hasanovich

Maktabgacha ta'lim tashkiloti menejerlarining intellektual salohiyatini tashxislashning metodik ta'minotini takomillashtirish 244
Abdumo'minova Lobar Abdujabbarovna

Sun'iy intellekt orqali talabalar kasbiy sifatlarini rivojlantirishning boshlang'ich tushunchalari 249
Normurodov Sherzod Boymurodovich

"Smart o'qish" raqamli platformasi va muallif metodlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy komponentlarini rivojlantirish 253
Obidova Shohsanam G'anijon qizi

Lingvopoetikada shakl va mazmun birligi xususida nazariy qarashlar 257
Quvonchoy Yusupova

Designing an ESP Coursebook for Architecture Students on the Basis Of VTTSS 262
Sabirova Nilufar Kudratovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish 266
Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna

A Comparative Study of Idiom and Environmental Meaning in the Works of Ernest Hemingway and Tog'ay Murod 272
Zebiniso Allayarova, Malika Bahromova

Maktabgacha ta'limda o'yinga asoslangan ta'limni takomillashtirishning O'zbekiston Respublikasidagi me'yoriy-huquqiy asoslari 277
Farmonov Murodullo Sunnatilloyevich

Обучение русскому языку студентов направления узбекской филологии с использованием искусственного интеллекта: методическая модель 282
Набиева Камиля Азимовна

Bo'lajak tarbiyachilar mediakompitentligini raqamli texnologiyalar vositasida shakllantirish samaradorligini baholash mezonlari va diagnostik vositalari 290
Tavobova Ozoda Farhodovna

Все три брата Лобачевские действительно восприняли талант отца 296
Жумаев Эркин Эргашевич, Аманниязова Бибимариям Пирнияз кызы

Pedagogik tafakkur tarixida fikr tarbiyasi: yondashuvlar va zamonaviy ta'limda qo'llanish imkoniyatlari 302
Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limni raqamlashtirish muammolari 306
Raxmatullayeva Malika Bahodir qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarining pedagogik imkoniyati 310
Imomkulova Ozoda Norboboyevna

Pedagogika mutaxassisligi magistrlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interdisiplinar mexanizmlari... 315
Jumaniyazova Go‘zal Baxorovna

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida parametr qatnashgan chiziqli tenglamalarni o‘rganish bo‘yicha ba’zi bir mulohazalar..... 319
Musayeva Ziyoda Allayarovna

Bo‘lajak pedagoglarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muammoli ta’lim va keys-stadi metodlarini integratsiyalash..... 325
Namozova Barno Navruzovna

Umumta’lim maktablarida formativ baholash orqali o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish: pisa yondashuvi asosida 331
Norqulov Furqat Maxmatmo‘minovich

O‘quvchilarda agressiv xulq-atvorni boshqarish va ijtimoiy xulq-atvorni tarbiyalash usullari..... 336
Nusratova Setora Dilshod qizi, Sh. U. Nurullayeva

Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari 343
Raxmatullin Rafis Sagitovich, Zaitov Iskander Ravilevich, Ikromova Rano Ubaydullayevna, Qodirova Raxima Rajabovna, Muratbayeva Aliya Paraxatovna, Juman Turonovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

"SMART O'QISH" RAQAMLI PLATFORMASI VA MUALLIF METODLARI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQIY KOMPONENTLARINI RIVOJLANTIRISH

UO'K 372.41:004

Obidova Shohsanam G'anijon qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: shohsanamobidova757@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy komponentlarini adabiy asarlar vositasida rivojlantirishga yo'naltirilgan "Smart o'qish" raqamli platformasi va mualliflik metodlari tizimi tavsiflanadi. Platforma amaldagi 1–4-sinf "O'qish savodxonligi" darsliklari asosida yaratilgan bo'lib, har bir dars "Lug'at", "Matn", "Savollar" va "Topshiriq" modullaridan iborat. Darsliklar tahlilida aniqlangan bo'shliqlarni bartaraf etish maqsadida fonetik, leksik, grammatik va diskursiv komponentlarga yo'naltirilgan oltita metod ishlab chiqilgan. Platforma modullari va metodlarning nutqiy komponentlar hamda adabiy asar bilan ishlash bosqichlari bilan o'zaro bog'liqligi asoslangan.

Kalit so'zlar: raqamli platforma, "Smart o'qish", nutqiy komponentlar, mualliflik metodlari, adabiy asar, ifodali o'qish, boshlang'ich ta'lim.

Abstract: The article describes the "Smart o'qish" digital platform and a system of author-developed methods aimed at developing primary school pupils' speech components through literary works. The platform is based on the current "Reading Literacy" textbooks for Grades 1–4, with each lesson consisting of four modules: "Vocabulary", "Text", "Questions" and "Task". To address gaps identified through textbook analysis, six methods targeting the phonetic, lexical, grammatical and discourse components of speech were developed. The article substantiates the relationship between the platform's modules, the proposed methods, the speech components and the stages of working with literary works.

Key words: digital platform, "Smart o'qish", speech components, author-developed methods, literary work, expressive reading, primary education.

Аннотация: В статье описываются цифровая платформа "Smart o'qish" и система авторских методов, направленных на развитие речевых компонентов учащихся начальных классов посредством литературных произведений. Платформа создана на основе действующих учебников "Чтение и грамотность" для 1–4-х классов. Каждый урок включает модули "Словарь", "Текст", "Вопросы" и "Задание". Для устранения пробелов, выявленных в ходе анализа учебников, разработаны шесть методов, направленных на развитие фонетического, лексического, грамматического и дискурсивного компонентов речи. Обоснована взаимосвязь модулей платформы и методов с речевыми компонентами и этапами работы с литературным произведением.

Ключевые слова: цифровая платформа, "Smart o'qish", речевые компоненты, авторские методы, литературное произведение, выразительное чтение, начальное образование.

KIRISH

Ta'limni raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish va nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishda raqamli vositalarning ahamiyati ortib bormoqda. D. A. Muminova o'quvchilarning kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun virtual texnologiyalarni ishlab chiqish va elektron darsliklar bilan ishlash muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi [1, P. 136]. Olimaning qayd etishicha, yetakchi xorijiy davlatlarda bosma kitoblar bilan bir qatorda elektron va audiokitoblarni o'qish an'analari ham shakllangan [2, 18-b.].

Amaldagi "O'qish savodxonligi" darsliklari tahlili ularda nutqiy komponentlarni rivojlantirish uchun boy material mavjudligini, biroq bir qator bo'shliqlar ham borligini ko'rsatdi:

- grammatik komponentni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar ulushi 4-sinfda atigi 2,3 foizni tashkil etadi;
- ijodiy topshiriqlar nutqiy tayanchlar bilan tizimli ravishda ta'minlanmagan;

- 4-sinf darsligidagi savollarning 64,4 foizi eslash darajasiga taalluqli;
- ifodali o‘qish bo‘yicha ko‘rsatmalar ko‘p bo‘lsa-da, ifodali o‘qish namunasi berilmagan [3].

Ushbu bo‘shliqlarni darslik doirasida to‘ldirish uchun u bilan uzviy bog‘langan raqamli vosita va maxsus metodlar zarur. Tadqiqotning maqsadi – darslik bilan uzviy bog‘langan “Smart o‘qish” raqamli platformasi va mualliflik metodlari tizimini ishlab chiqish hamda ularning nutqiy komponentlarni rivojlantirish imkoniyatlarini asoslash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. A. G‘ulomov va B. Qobilova nutq o‘stirish metodikasiga, A. G. Muhiddinov esa o‘quv jarayonida nutq faoliyatini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratgan.

Xorijiy tadqiqotchilardan P. A. Palincsar va A. L. Brown matnni o‘zaro muhokama qilish orqali tushunishni rivojlantirish usullarini, J. Hattie va H. Timperley esa ta’lim jarayonida qayta aloqaning ahamiyatini yoritgan. Shuningdek, raqamli ta’lim va o‘yinlashtirishga oid tadqiqotlar o‘quv jarayonini interaktiv tashkil etish imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Biroq boshlang‘ich sinf darsliklari bilan uzviy bog‘langan raqamli platforma va mualliflik metodlari orqali nutqiy komponentlarni tizimli rivojlantirish masalasi qo‘shimcha tadqiqotlarni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot dizayn asosidagi tadqiqot (design-based research) yondashuvi doirasida olib borildi. Platforma va metodlarni loyihalashda uchta manbaga tayanildi.

Birinchidan, nutqiy komponentlarning mualliflik ta’rifiga, ya’ni ular badiiy matnni idrok etish, tushunish va qayta yaratish jarayonida faollashadi, degan qoidaga;

ikkinchidan, darsliklar kontent-tahlili natijalariga;

uchinchidan, nutq o‘stirish metodikasi hamda xorijiy tadqiqotlarda asoslangan usullarga.

Platformaning imkoniyatlari tuzilmaviy-funksional tahlil usuli yordamida o‘rganilib, har bir modul nutqiy komponentlar va asar bilan ishlash bosqichlariga moslashtirildi. Metodlar darsliklarda aniqlangan har bir bo‘shliqni bartaraf etishga yo‘naltirilgan holda loyihalandi va mavjud o‘xshash usullar bilan qiyoslandi. Platforma va metodlarning samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali baholanmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Platformaning tuzilishi

“Smart o‘qish” platformasi to‘rt pog‘onali tuzilishga ega: sinf, darslik qismi, bo‘lim va dars [4]. Platformadagi har bir dars darslikdagi aniq mavzu va betlarga mos keladi, shuning uchun o‘quvchi sinfda o‘rganilgan asar ustidagi ishni uyda aynan shu asar materiallari asosida davom ettiradi. Har bir dars to‘rt moduldan iborat.

“Lug‘at” moduli asardagi notanish so‘zlarning ma’nosini o‘qishdan oldin ochib beradi va tayyorlov bosqichida leksik komponentni rivojlantirishga xizmat qiladi.

“Matn” moduli asarni ovozli namuna bilan taqdim etadi va fonetik komponentni rivojlantirish uchun namuna vazifasini bajaradi.

“Savollar” moduli eslashdan shaxsiy munosabat bildirishgacha bo‘lgan darajalangan savollar orqali grammatik va diskursiv komponentlarni, “Topshiriq” moduli esa barcha komponentlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Har bir asar bo‘yicha topshiriqlar “o‘quv yo‘li” shaklida joylashtirilgan. Masalan, bir hikoya bo‘yicha o‘quv yo‘li “Muallif bilan tanishuv”, “Kim aytdi?”, “Hikoya sayohati”, “Tasvir so‘zlari”, “Nima avval bo‘lgan?” va “To‘g‘ri yoki noto‘g‘ri” bosqichlaridan iborat.

Bosqichlar ketma-ket ochiladi, har bir bosqich uchun uchtagacha yulduzcha beriladi, har bir javobning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligi darhol ko‘rsatiladi, qahramon-maskot esa qisqa maslahat beradi. O‘quv yo‘li yakunlangach, o‘quvchi uchun “Topshiriqlar”, “Mulohaza” va “Qiziqarli” bo‘limlari ochiladi. Ularda eslashdan xulosa chiqarishgacha bo‘lgan mulohaza savollari, mavzu bo‘yicha suhbat uchun reja tuzish topshirig‘i, shuningdek, asar mavzusiga mos hikmatli so‘zlar va topishmoqlar beriladi. Bu bo‘limlar platformadagi ishni o‘quvchining mustaqil og‘zaki nutqini rivojlantirish bilan bog‘laydi.

Mualliflik metodlari

Darsliklarda aniqlangan bo‘shliqlarni bartaraf etish maqsadida oltita metod ishlab chiqildi. Ularning har biri bitta komponentga yoki komponentlar o‘rtasidagi aniq bog‘lanishga yo‘naltirilgan. Metodlar 4-sinf darsligidagi asarlar misolida tavsiflanadi.

“Ovoz izi” metodi o‘quvchining ifodali o‘qish ko‘nikmasini namunani tinglash, matnda pauza, mantiqiy urg‘u va ohang belgilarini qo‘yish, o‘z o‘qishini yozib olish hamda uni namuna bilan taqqoslash orqali shakllantiradi. Masalan, “Tovuq bilan Tulki” masalida o‘quvchi Tulkining soxta xushmuomala murojaatidagi ohangni belgilaydi va o‘z o‘qishini namuna bilan solishtiradi.

“So‘zning uch bekati” metodi asardagi yangi so‘zni o‘zlashtirish uchun uch bosqichni nazarda tutadi: so‘zning asar matnidagi ma’nosini anglash, uni o‘quvchining shaxsiy tajribasi bilan bog‘lash va yangi vaziyatda mustaqil qo‘llash. Shu orqali so‘z o‘quvchining faol lug‘atiga kiritiladi.


Metod N. I. Bekniyazovaning so‘zni bilish uni to‘liq o‘zlashtirishni anglatmasligi haqidagi xulosasiga [5, 12-b.] tayanadi.

“Gap ustaxonasi” metodi doirasida asardan olingan sodda gaplar bog‘lovchi vositalar yordamida murakkab gaplarga aylantiriladi va ularning mazmuniy to‘g‘riligi o‘zaro tekshiriladi. Masalan, “Tovuq bilan Tulki” masali asosida “Tovuq Tulkiga ishonmadi, shuning uchun pastga tushmadi” kabi gaplar tuziladi. Metod sodda gaplarni birlashtirish usuliga [6, 35-b.; 7] asoslanadi.

“Uch ko‘zgu” metodi yordamida asardagi bitta voqea uch nuqtayi nazardan hikoya qilinadi va taqqoslanadi. Masalan, “Qari bilganni pari bilmas” ertagidagi tog‘da sodir bo‘lgan voqea yigit, keksa ota va voqeani kuzatib turgan qushcha nomidan so‘zlab beriladi. Metod o‘quvchi nutqining aniq suhbatdoshga yo‘naltirilmasligi muammosini bartaraf etishga qaratilgan [8, 30-b.].

“Savol zanjiri” metodi doirasida o‘quvchilar asar yuzasidan uch darajadagi savollar tuzib, ularni zanjir shaklida bir-biriga uzatadilar va asoslangan javoblar beradilar. Masalan, “Tovuq nega pastga tushmadi?” yoki “Agar sen Tovuqning o‘rnida bo‘lganingda, Tulkiga nima deb javob bergan bo‘larding?” kabi savollar tuziladi.

“Nutq zinapoyasi” metodi bitta asar materialidan foydalanib, to‘rtta nutqiy komponentni fonetik komponentdan diskursiv komponentgacha ketma-ket faollashtiradi. Har bir pog‘onada erishilgan natija keyingi bosqich uchun tayanch vazifasini bajaradi va o‘quvchini mustaqil matn yaratishga olib boradi (1-rasm).



1-rasm: **“Nutq zinapoyasi” metodining tuzilishi**

Metodlar sinfdan tashqari o‘qish jarayonida ham qo‘llanadi. 4-sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga mos asarlar sifatida H. K. Andersenning “Xunuk o‘rdakcha” ertagi va Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sehrli qalpoqcha” asari tanlandi. Ushbu asarlar asosida o‘quvchilar “Kitobxon kundaligi”ni yuritadi, kitob taqdimotini o‘tkazadi va “Agar menda sehrli qalpoqcha bo‘lganida…” mavzusida fikr almashadi.

Platformaning asosiy afzalligi uning darslik bilan uzviy bog‘liqligidir: u darslikning o‘rnini bosmaydi, balki darslik materiallari asosida sinfdagi ishni uyda davom ettirish imkonini beradi. Ovozli namuna ifodali o‘qishning to‘g‘ri namunasini o‘quvchiga muntazam taqdim etadi. Bu, ayniqsa, o‘qish ko‘nikmasi sekin shakllanayotgan

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

o‘quvchilar uchun muhim, chunki K. Stanovich ta’kidlaganidek, sust o‘qiydigan bola kam o‘qiydi va vaqt o‘tishi bilan tengdoshlaridan tobora ortda qoladi [9].

Platformadagi o‘quv yo‘li, yulduzchalar, qahramon-maskot va darhol taqdim etiladigan qayta aloqa o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. O‘quv faoliyatiga o‘yin elementlarini kiritish, ya’ni geymifikatsiya, hamda o‘z vaqtida qayta aloqa berish o‘quv natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi xorijiy tadqiqotlarda asoslangan [10; 11]. Platformadan uyda ota-onalar ishtirokida foydalanish oilaviy o‘qish muhitining keyinchalik o‘qib tushunish ko‘nikmasiga ijobiy ta’siri haqidagi ma’lumotlarga ham mos keladi [12].

Mualliflik metodlari mavjud usullardan muayyan jihatlari bilan farqlanadi. “Nutq zinapoyasi” pedagogik texnologiyalarda keng tarqalgan “Zinama-zina” metodidan farqli ravishda umumiy didaktik ketma-ketlikka emas, balki nutqning to‘rt komponentiga asoslanadi. Bunda har bir pog‘onada yaratilgan nutqiy mahsulot keyingi pog‘ona uchun material vazifasini bajaradi.

“Savol zanjiri” o‘quvchilar mustaqil ravishda savollar tuzadigan “o‘zaro o‘qitish” usulidan [13] savollarning uch darajaga ajratilishi va asoslangan javob berish talabi bilan farq qiladi.

“Ovoz izi” metodida esa T. Rasinski tavsiya etgan, pauzalari oldindan belgilangan matndan [14] farqli ravishda, o‘quvchi matndagi belgilarni namunani tinglash asosida mustaqil qo‘yadi va o‘z o‘qishini namuna bilan taqqoslaydi.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, platforma va metodlarning samaradorligi hozircha nazariy va tuzilmaviy jihatdan asoslangan. Ularning o‘quvchilarning nutqiy komponentlari rivojlanishiga ta’siri keyingi tadqiqotda tajriba-sinov ishlari natijalari asosida baholanadi.

XULOSA

“Smart o‘qish” raqamli platformasi amaldagi darsliklar bilan uzviy bog‘langan holda, har bir darsda to‘rtta nutqiy komponentni “Lug‘at”, “Matn”, “Savollar” va “Topshiriq” modullari orqali qamrab oladi hamda asar bilan ishlashning tayyorlov, asosiy va yakuniy bosqichlarini raqamli muhitda amalga oshirish imkonini beradi.

“Ovoz izi”, “So‘zning uch bekati”, “Gap ustaxonasi”, “Uch ko‘zgu”, “Savol zanjiri” va “Nutq zinapoyasi” metodlari darsliklar tahlilida aniqlangan bo‘shliqlarni bartaraf etishga qaratilgan bo‘lib, platforma bilan birgalikda nutqiy komponentlarni izchil rivojlantirish tizimini tashkil etadi.

Platforma va metodlardan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘qish savodxonligi darslarida hamda sinfdan tashqari o‘qishni tashkil etishda foydalanishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muminova D. A. Books and library are a mirror of human spirituality // ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2021. – Vol. 2, Issue 7. – P. 135–140.
2. Muminova D. A. Kitobxonlik vositasida talabalarni shaxsiy ijtimoiylashtirishning metodik tizimi: Ped. fan. dokt. (DSc) diss. avtoref. – Chirchiq, 2024.
3. Aydarova U. B., Azizova N. K., Toirova M. E. O‘qish savodxonligi: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1–4-sinflari uchun darsliklar (I–IV qismlar). – Toshkent: Novda Edutainment, 2023.
4. Obidova Sh. G‘. “Smart o‘qish” raqamli platformasi (mobil ilova). – URL: https://play.google.com/store/apps/details?id=com.smart.oqish
5. Бекниязова Н. И. Таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган мактабларнинг бошланғич синфларида ўқувчилар сўз бойлигини ошириш: Пед. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 1998.
6. Ғуломов А. Қ., Қобилова Б. Ш. Нутқ ўстириш машғулотлари: ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
7. Saddler B., Graham S. The effects of peer-assisted sentence-combining instruction on the writing performance of more and less skilled young writers // Journal of Educational Psychology. – 2005. – Vol. 97, No. 1. – P. 43–54.
8. Муҳиддинов А. Ғ. Ўқув жараёнида нутқ фаолияти: она тили ва адабиёт ўқитувчилари учун методик қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
9. Stanovich K. E. Matthew effects in reading: Some consequences of individual differences in the acquisition of literacy // Reading Research Quarterly. – 1986. – Vol. 21, No. 4. – P. 360–407.
10. Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. From game design elements to gamefulness: defining “gamification” // Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference. – Tampere, 2011. – P. 9–15.
11. Hattie J., Timperley H. The power of feedback // Review of Educational Research. – 2007. – Vol. 77, No. 1. – P. 81–112.
12. Sénéchal M. Testing the home literacy model: Parent involvement in kindergarten is differentially related to grade 4 reading comprehension, fluency, spelling, and reading for pleasure // Scientific Studies of Reading. – 2006. – Vol. 10, No. 1. – P. 59–87.
13. Palincsar A. S., Brown A. L. Reciprocal teaching of comprehension-fostering and comprehension-monitoring activities // Cognition and Instruction. – 1984. – Vol. 1, No. 2. – P. 117–175.
14. Rasinski T. V. The Fluent Reader: Oral Reading Strategies for Building Word Recognition, Fluency, and Comprehension. – New York: Scholastic, 2003.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.